


VII. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma’lumotlar jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma’lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to‘g‘ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko‘rsatkichlarini shakillantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko‘rsatkichi shular jumlasidan.

2024-yil 1-yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalar soni **2 858** tani tashkil etib, 2023-yil 1-yanvarga nisbatan 9 taga ko‘paygan (o‘shish sur‘ati 100,3 %). Shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 85 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 773 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig‘ilgan ma’lumotlar, chakana savdo ko‘rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko‘rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi 11 271,8 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 107,0 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 316,1 mird. so‘mni (o‘shish sur‘ati 109,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 10 955,7 mlrd. so‘mni (o‘shish sur‘ati 106,9 %), shundan uyushmagan savdo aylanmasi 1 377,6 mlrd. so‘mni (o‘shish sur‘ati 102,5 %) tashkil etdi.

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining hajmi va o‘shish sur‘atlari (2023-yil yanvar-dekabr oylari)

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste‘mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko‘p bo‘lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so‘m	2022-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd.so‘m	2022-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mlrd.so‘m	2022-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	11 271,8	107,0	315,9	109,7	10 955,7	106,9
Nukus sh.	3 000,8	105,6	83,6	104,1	2 917,2	105,7
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	757,9	105,2	15,9	87,1	742,0	105,6
Beruniy	880,7	108,0	31,4	66,5	849,3	110,5
Bo‘zatov	47,7	110,1	0,2	70,0	47,5	110,5
Qorao‘zak	321,2	105,7	1,1	76,8	320,0	105,8
Kegeyli	273,6	105,9	1,3	84,8	272,3	106,1
Qo‘ng‘irot	806,8	110,2	18,4	96,5	788,4	110,6
Qonliko‘l	277,5	107,4	0,4	53,5	277,2	107,5
Mo‘ynoq	105,2	108,1	0,4	65,5	104,8	108,3
Nukus	239,2	111,0	0,8	58,9	238,4	111,4
Taxiatosh	296,6	121,9	83,1	232,4	213,5	102,9
Taxtako‘pir	249,3	107,7	0,7	56,6	248,6	108,0
To‘rtko‘l	1 555,9	108,8	39,0	105,4	1 516,8	108,9
Xo‘jayli	1 034,6	104,1	14,1	89,2	1 020,4	104,4
Chimboy	501,9	104,4	10,7	91,1	491,2	104,7
Shumanay	231,3	105,5	0,6	65,8	230,7	105,6
Ellikqal‘a	691,6	106,5	14,2	97,3	677,4	106,8

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan respublikaning Taxiatosh (121,9 %), Nukus (111,0 %), Qo‘ng‘irot (110,2 %) va Bo‘zatov (110,1 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o‘shish sur‘atlari qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, 10 955,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 106,9 % ga o‘tdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 97,2 % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o‘shish sur‘atiga ega hududlar (foizda)



Yirik korxonalarining eng yuqori o‘shish sur‘atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 109,7 % ga o‘tdi va 316,1 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 2,8 % ulushiga to‘g‘ri keldi.

Aholi jon boshiga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o‘shish sur‘atlari

2023-yilning yanvar-dekabr holatiga o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 5 665,9 ming. so‘mni (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 105,5 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida ma’lumot

	Hajmi ming. so‘m	O‘shish sur‘atlari, foizda
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	5 665,9	105,5
Nukus sh.	8 907,1	104,0
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	3 603,8	103,4
Beruniy	4 336,1	105,9
Bo‘zatov	2 179,5	109,6
Qorao‘zak	5 914,8	104,9
Kegeyli	3 672,2	105,1
Qo‘ng‘irot	5 963,3	108,8
Qonliko‘l	5 197,1	106,0
Mo‘ynoq	3 141,1	107,1
Nukus	4 479,6	109,0
Taxiatosh	3 876,8	121,0
Taxtako‘pir	6 408,6	110,2
To‘rtko‘l	6 860,1	106,9
Xo‘jayli	8 082,5	102,8
Chimboy	4 349,7	103,6
Shumanay	4 002,3	104,5
Ellikqal’a	4 082,5	104,5

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Nukus shahri (8 907,1 ming. so‘m), Xo‘jayli (8 082,1 ming. so‘m) va To‘rtko‘l (6 860,1 ming. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo‘yicha
chakana tovar aylanmasi**

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2022-yil yanvar-dekabriga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Jami	11 271,8	107,0	100,0
<i>shu jumladan mulkchilik shakllari bo‘yicha:</i>			
davlat mulki	-	-	-
nodavlat mulki	11 271,8	107,0	100,0
undan fuqarolarning hususiy mulki	5 162,2	109,8	45,8

Savdo korxonalarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2023 yilning yanvar-dekabrida 4 731,9 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 105,4 foizni tashkil etgan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikning jami chakana savdo hajmi joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 6 539,8 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 108,2 foizga o‘sdi.

2023-yilning yanvar-dekabrida chakana savdo aylanmasi tarkibi

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2022-yil yanvar-dekabriga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Chakana tovar aylanmasi	11 271,8	107,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
savdo korxonalari	4 731,9	105,4	42,0
Yakka tartibdagi tadbirkorlik	6 539,9	108,2	58,0
<i>shundan:</i> uyushmagan sektor (tashkil etilmagan savdo faoliyati)	1 377,7	102,5	12,2

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi

19,7 mlrd.so‘m



Tuzlamalar

26,5 mlrd.so‘m



**Qurtilgan qishloq
xo‘jaligi mahsulotlari**
(yang‘oq, bodom, pista va
boshqalarni qo‘shgan holda)

19,9 mlrd.so‘m



Zirotlar

11,3 mlrd.so‘m



**Gullar, o‘simlik va nihol
ko‘chatlari** (manzarali va
qishloq xo‘jaligi)

38,8 mlrd.so‘m



**Sut va sut
mahsulotlari**

36,1 mlrd.so‘m



Tuxum

29,6 mlrd.so‘m



Tovuq go‘shti

22,1 mlrd.so‘m



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har hil
yem-hashaklar**

50,3 mlrd.so‘m



**Non va non
mahsulotlari**

444,3 mlrd.so‘m




**Yangi uzilgan qishloq
xo‘jaligi mahsulotlari**

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida Respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 781,9 mlrd. So‘mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (444,3 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi: chorva (parranda) bozorlari

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida Respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollarini sotuvchi jismoniy shaxslar tanlama kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 595,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har hil yoshdagi qora mollar savdosi 510,0 mlrd.so‘mni, qo‘y va echkilar 71,8 mlrd. so‘mni, otlar 9,4 mlrd. so‘mni, parrandala 4,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to‘liq tarkibi quydagi ko‘rsatkichlarda o‘z aksini topgan:



Ichki savdo ko‘rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Uyushmagan savdo aylanmasida dehqon* va chorva (parranda) bozorlarining asosiy ko‘rsatkichlari (2023-yil yanvar-dekabr oylari)


	Jami mlrd.so‘m	2022-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd.so‘m	2022-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd.so‘m	2022-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 377,6	102,5	781,9	96,9	595,7	110,8
Nukus sh.	185,8	104,8	109,8	103,2	76,0	107,2
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	115,5	98,8	71,5	102,0	44,0	94,1
Beruniy	112,9	116,9	56,0	96,6	57,0	147,2
Bo‘zatov	30,9	100,1	24,1	130,4	6,8	55,1
Qorao‘zak	54,5	100,4	30,7	94,1	23,8	109,6
Kegeyli	82,6	100,9	62,7	127,8	19,9	60,8
Qo‘ng‘irot	114,5	100,6	78,9	115,7	35,6	78,2
Qonliko‘l	60,1	100,0	18,2	50,5	41,9	174,4
Mo‘ynoq	18,5	100,3	18,5	100,3	-	-
Nukus	75,1	100,3	37,2	82,7	37,9	126,4
Taxiatosh	39,4	100,0	24,1	102,1	15,3	97,1
Taxtako‘pir	51,6	101,7	26,3	86,6	25,2	124,3
To‘rtko‘l	169,0	100,2	76,1	75,2	92,9	137,7
Xo‘jayli	79,8	101,1	49,3	104,0	30,5	96,4
Chimboy	100,6	102,3	50,5	85,6	50,1	127,3
Shumanay	33,3	109,0	18,8	102,4	14,5	118,5
Ellikqal‘a	53,5	101,4	29,2	92,0	24,3	115,7

* – xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo‘shmagan holatda;


– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi,
mlrd. so‘mda



Respublika bo‘yicha 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 4 334,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 108,4 % ni tashkil qildi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi 3 972,3 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 112,8 %ga to‘g‘ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 91,6 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlari Nukus shahrida (95,5 %) va Taxiato‘sh tumanida (75,7 %) kuzatildi.

2024-yil 1-yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 1012 tani tashkil etib, 2023-yil 1-yanvar holatiga nisbatan 6 taga kamaygan, o‘shir sur‘ati 99,4 % tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1007 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes subyektlarining hajmi va o‘shir sur‘atlari (2023-yil yanvar-dekabr oylari)

	Jami mlrd.so‘m	2022-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd.so‘m	2022-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mlrd.so‘m	2022-yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4 334,7	108,4	362,4	76,0	3 972,3	112,8
Nukus sh.	1 883,6	101,4	12,7	85,5	1 870,9	101,6
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	148,4	104,8	-		148,4	104,8
Beruniy	190,2	106,0	-		190,2	106,0
Bo‘zatov	9,4		-		9,4	
Qorao‘zak	52,0	340,3	-		52,0	340,3
Kegeyli	24,2	293,0	-		24,2	293,0
Qo‘ng‘irot	142,5	247,7	-		142,5	247,7
Qonliko‘l	73,7	912,9	-		73,7	912,9
Mo‘ynoq	314,5	100,7	-		314,5	100,7
Nukus	60,0	236,0	-		60,0	236,0
Taxiatosh	506,2	85,7	349,7	75,7	156,5	121,4
Taxtako‘pir	35,8	920,9	-		35,8	920,9
To‘rtko‘l	425,5	110,2	-		425,5	110,2
Xo‘jayli	121,2	171,2	-		121,2	171,2
Chimboy	175,4	103,6	-		175,4	103,6
Shumanay	4,3	101,7	-		4,3	101,7
Ellikqal‘a	167,8	100,5	-		167,8	100,5

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Chakana savdo – savdo sohasida yakuniy iste‘mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko‘p bo‘lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyat, ya‘ni tovarlarni foydalanish sohasidan shaxsiy yoki umumiy iste‘mol sohasiga o‘tgan vaqtdagi harakatining yakuniy bosqichini ifodalaydi.

Chakana tovar aylanmasi – tovarlarni sotish tarmoqlaridan qat‘iynazar, aholiga iste‘mol tovarlarini naqd hisob-kitob asosida yoki plastik kartochkalari, kredit kartochkalari, banklarning hisob cheklari orqali (bu ham naqd hisob-kitob asosida sotish kabi hisobga olinadi) sotilgan qiymati.

Umumiy ovqatlanish – yuridik shaxslar tomonidan pazandachilik mahsulotlarini tayyorlashga, sotishga va iste‘molini tashkil qilishga ixtisoslashtirilgan faoliyatni amalga oshirish.

Umumovqatlanish aylanmasi – joyida aholiga iste‘mol uchun, shuningdek, turli kontingentdagi aholini ovqatlanishini tashkil qilish uchun tashkilot va yakka tadbirkorlarga o‘zi ishlab chiqargan kulinariya mahsulotlarini (taom, kulinariya mahsulotlari va yarimfabrikatlar), shuningdek, kulinariya ishlovisiz sotib olingan tovarlarni (unli, qandolatli va non mahsulotlari) sotishdan tushgan tushumni ifodalaydi.

Tovar zaxiralari – chakana savdo korxonalarini balansida turgan va kelgusida sotish uchun mo‘ljallangan tovarlar qoldig‘i.

Tovar aylanmasining tovar tuzilmasi – umumiy savdoda nisbiy ko‘rsatkich – jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og‘irlik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlari o‘rtasidagi nisbat, ya‘ni tovar aylanmasi tarkibi.

Ulgurji savdo – tijorat maqsadlarida yoki o‘zining ishlab chiqarish-xo‘jalik ehtiyojlariga foydalanish uchun, xarid qilingan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli bo‘yicha sotish.

Iste‘mol tovarlari – yakuniy iste‘molga (oilaviy yoki shaxsiy) qaratilgan, bevosita inson ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar.

Texnik-ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mahsulotlar – ishlab chiqarish iste‘moli uchun mo‘ljallangan mahsulot: xomashyo, materiallar, yoqilg‘i, butlovchi instrumentlar, mashinalar, ehtiyot qismlar, yarimfabrikatlar va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – tuzilgan shartnomalar bo‘yicha tijorat maqsadlarida (kelajakda qayta ishlash yoki sotish) yoki o‘zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun naqd pulsiz hisob-kitob shaklida tovarlar sotishdan tushumni ifodalaydi.

Tovar zaxiralari – tovar muomalasi doirasida bo‘lgan tovarlar yoki ulgurji korxonalar balansida turgan va kelgusida sotishga mo‘ljallangan tovarlar qoldig‘i.

Tovar aylanmasining tovar tuzilishi – tovar aylanmasi tarkibi, umumiy savdoda nisbiy ko‘rsatkich – jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og‘irlik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlari o‘rtasidagi nisbat.